

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2018 yilda Samarqand viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (YaHM) hajmi joriy narxlarda 31187,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,7 % ga pasaydi.

2018 yilning yanvar-dekabr yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 8295,8 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 2,7 % ga kamaygan.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMni shakllantirishda Samarqand viloyatining qo'shgan hissasi 7,7 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ni ishlab chiqarish

| | Mlrd. so'm | | 2017 yil yanvar-dekabrga nisbatan, % da |
|---|------------------------|------------------------|---|
| | 2017 yil yanvar-dekabr | 2018 yil yanvar-dekabr | |
| I. YaHM | 25569,8 | 31187,4 | 99,3 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | |
| Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 25176,3 | 30613,4 | 99,2 |
| Mahsulotlarga sof soliqlar | 393,5 | 574,0 | 105,1 |
| II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 25176,3 | 30613,4 | 99,2 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 13213,9 | 16008,8 | 94,4 |
| Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) | 4382,9 | 5636,6 | 105,1 |
| sanoat | 3311,7 | 4296,5 | 105,0 |
| qurilish | 1071,2 | 1340,1 | 105,3 |
| Xizmatlar | 7579,5 | 8968,0 | 104,1 |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 1641,5 | 1987,5 | 103,4 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 1916,7 | 2118,1 | 107,0 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 4021,3 | 4862,4 | 103,0 |

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida, jumladan sanoat tarmog'ida 105,0 %, (YaHM tarkibidagi ulushi – 14,0 %), qurilish – 105,3 % (4,4 %), xizmatlar sohasida 104,1 % (29,3%) ni tashkil etdi. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ida esa, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,6 % kamayish kuzatildi.

2018 yilning yanvar-dekabrida YaHM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari




Iqtisodiy faoliyat turlari

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiylar YaHMning 98,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,8 % ini tashkil etdi.


Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'ining YaHMdagi ulushi 0,9 % punktga kupaydi va hisobot yilida 18,4 % ni tashkil etdi. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining YaHM tarkibidagi ulushi 0,2 % punktga kamaydi va hisobot yilida 52,3 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasi esa 29,3 % ni tashkil etib 2017 yilning mos davri (30,0 %) bilan taqqoslanganda 0,7 % punktga kamaydi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2017 yil yanvar-dekabr



2018 yil yanvar-dekabr




- Mahsulotlarga soʻf soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 6,5 % ni (2017 yil yanvar-dekabr – 6,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 7,6 % ni (6,9 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 15,9 % ni (15,9 %) tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)**

2017 yil yanvar-dekabr



2018 yil yanvar-dekabr



- savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar